

XIRURGIK DAVOLASH XUSUSIYATLARI. JARROHLIK ISHINI TASHKIL ETISH.

Urganch Abu Ali Ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligi texnikumi
o'qituvchisi Salayeva Shahnoza
Pirnazar qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xirurgik davolash xususiyatlari. Jarrohlik ishini tashkil qilish atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ruhiy, fizik, bemor, iliq

Hamshiralik ishi - bu bemorni parvarish qilishni tashkil etish, shu bilan birga inson, oila hamda jamiyatning fizik, ruhiy va ijtimoiy talablarini qondirishga yo'naltirilgan tadbir hisoblanadi. Hamshiralik ishi jarayonining maqsadi – bemor sog'lig'ini tiklash, ta'minlash bilan bir qatorda uning asosiy talablarini qondirishdan iboratdir. Hamshiralik ishi jarayoni oliy ma'lumotli hamshiradan mustahkam ruhiy, jismoniy, ma'naviy va texnik tayyorgarlik, bemorni parvarish qilishda ijobiy yondashish, bemor bilan muolaja obyekti sifatida emas, balki shaxs sifatida ishlash va iliq munosabatda bo'lishni talab etadi. Hamshira bemor va tashqi dunyo o'rtasidagi bog'lovchi halqa vazifasini ham o'taydi. Hamshiralik ishi atamasi sog'liqni saqlash tizimiga yaqinda kirib kelib, hamshira faoliyatining mohiyatini hozirgi zamon talabiga ko'ra batamom ochib beradi. Hamshiralik ishi jarayoni bemorning barcha muammolarini bartaraf etish uchun amalga oshirilishi zarur bo'lgan hamshiralik yordamining ma'lum bir tizimi asosida amalga oshirilishi zarur. Jarrohlik dardga chalingan bemorlarning asosiy muammolari: og'riq, qo'rquv stressi, dispepsiya, ichak tizimi faoliyatining buzilishi, o'zini mustaqil ravishda parvarish eta olmaslik, ko'nglini bemalol yozib, odamlar bilan odatdagidek gaplasha olmasliklardan iborat. Bemor bilan doimo muloqotda bo'lish, yuqoridagi muammolarni hal qilishda ishtirok etish hamshirani bemor va tashqi dunyo bilan bog'lab turuvchi asosiy bo'g'inga aylantiradi.

Hamshiraning asosiy vazifasi bemor muammolarini hal etib berish ekan, u og'riqni kamaytirishi, uning azoblarini yengillashtirishi uchun qo'lidan kelgan barcha yordamini ayamasligi zarur. Hamshiralik ishi jarayoni to'g'ri tashkil etilgandagina bemorning barcha muammolari yuqori saviyada bartaraf etiladi. Yuqoridagi bayon etilgan masalalarni hal qilish maqsadida hamshiralik ishi jarayonini quyidagi bosqichlarga bo'linadi: 1. Bemorni ko'rikdan o'tkazish 2. Bemor muammolarini aniqlash va hamshiralik tashxisini qo'yish 3. Tibbiy yordam ko'rsatish rejasini tuzish 4. Rejalashtirilgan hamshiralik tibbiy yordamini amalga oshirish 5. Ko'rsatilgan hamshiralik yordamining natijasini baholash Quyida hamshiralik ishi jarayonining har bir bosqichiga alohida to'xtalib o'tamiz.

1-bosqich. Hamshiralik tekshiruvi. Obyektiv va subyektiv xususiyatlarga ega bo'lgan bemor sog'lig'i haqidagi ma'lumotlarni yig'ish. Subyektiv uslub - bu bemorning fiziologik, psixologik, sotsial belgilaridir. Bemor bilan suhbatlashish, uni fizikal tekshirish, tibbiy hujjatlarini o'rganish, uning qarindoshlari bilan suhbat o'tkazish - bu bemor haqidagi ma'lumot manbai hisoblanadi. Obyektiv uslub bemorning fizikal tekshiruv natijalari, tashqi ko'rinishi, ongi, to'shakdagi holati, tashqi muhit ta'siriga beriluvchanligi, teri rangi va namligi hamda shishlarning bor yoki yo'qligiga asoslanib aniqlanadi. Bu tekshiruvlarga bemor bo'y - basti, vazni, tana harorati, pulsi, qon bosimini o'lchash ham kiradi. Hamshiralik ishi jarayonining yakuniy natijasi bo'lib, barcha olingan ma'lumotlarni hujjatlashtirish va hamshiralik kasallik tarixini yaratish hisoblanadi. Hamshiralik kasallik tarixi yuridik hujjat hisoblanadi va hamshiraning mustaqil ish yuritish faoliyatidan dalolat beradi.

2-bosqich. Bemor muammolarini aniqlash va hamshiralik tashxisini qo'yish. Bemorning muammolari hozirgi paytda uni bezovta qilib turgan va kelgusida bezovta qilishi mumkin bo'lgan turlarga bo'linadi. Bu 2 xil muammoni aniqlagan hamshira bemorning ushbu muammolariga qarshi tura oladigan kuchli omillarni topadi. Bemorda har doim bir necha muammo bo'ladi. Hamshira birinchi navbatda shu muammolar ichidan bemorni eng ko'p tashvishga solayotgan muammoni aniqlaydi va uni bartaraf etishga kirishadi. Ikkinchi bosqich hamshiralik tashxisini qo'yish bilan

yakunlanadi. Shifokor tashxisi hamshira tashxisidan farqli o'laroq, patologik holatni aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Hamshira tashxisi esa bemor sog'lig'i bilan bog'liq bo'lgan barcha muammolarga reaksiyasini yoritishga asoslangan bo'ladi. Amerikalik hamshiralar assotsiatsiyasi (uyushmasi) sog'liq bilan bog'liq muammolarda quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: O'z - o'ziga xizmat qilishning chegaralanishi, organizm hayotiy a'zolar faoliyatining buzilishi, psixologik va kommunikant buzilishlar, hayot sikllari bilan bog'liq bo'lgan muammolar. Hamshiralik tashxisi qo'yilganda ular quyidagi iboralarni ishlatadilar: «gigienik tajriba va sanitar sharoitning yetishmovchiligi», «stress holatlarini yengishda shaxsiy qobiliyatning pasayishi», «notinchlik» va hokazo.

3-bosqich. Hamshiralik parvarishi va hamshiralik faoliyati rejalarining maqsadlarini aniqlash. Hamshiralik parvarishi rejasi operativ va taktik maqsadlarni ko'zlagan bo'lib, qisqa yoki uzoq muddat ichida erishiladigan natijalarga yo'naltirilgan bo'ladi. Maqsadni ko'zlab, uni bajarish kuni, vaqti, masofasi, kutilgan natijasi, sharoitlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish talab etiladi. Masalan, maqsad: bemor 20- sentyabr kuni hamshira yordamida karavotdan turishi kerak. Bunda ko'zlangan maqsad – karavotdan turish, vaqti – 20-sentyabr, muddati – 3 kundan keyin, ahvoli – hamshira yordami.

4-bosqich. Rejalashtirilgan maqsadlarni amalga oshirish. Bu bosqich oliy ma'lumotli hamshira davolayotgan kasalliklarning oldini olish, bemorni tekshirish hamda davolash, rehabilitatsiya uchun qilinadigan tadbirlarni o'z ichiga oladi. Hamshiralik aralashuvining 3 xil turi tavofut qilinadi va bu turlar bemorning ehtiyojiga qarab tanlab olinadi. Ular: shifokorga bog'liq bo'lgan hamshiralik aralashuvi, shifokor tavsiyalari va nazorati ostida bajaraladigan muolajalardan iborat. Mustaqil hamshiralik aralashuvi esa hamshiraning o'zi zarur deb topgan, shifokor tomonidan talab etilmagan muolajalar hisoblanadi. Masalan, bemorni higienik ko'nikma, dam olish, hordiq chiqarishga o'rgatish va hokazo. O'zaro bog'liq bo'lgan hamshiralik aralashuvi deb, hamshira va shifokor yoki boshqa mutaxassislarning birgalikdagi faoliyatiga aytiladi. Barcha turdagi hamshiralik aralashuvida hamshira katta mas'uliyat his etishi zarur.

5-bosqich. Hamshira parvarishi samaradorligini baholash. Bu bosqichda bemorning hamshira aralashuviga bo'lgan javob reaksiyasi o'rganiladi. Hamshira parvarishini baholash manbai bo'lib quyidagi omillar xizmat qiladi: hamshira aralashuviga bo'lgan bemorning javob reaksiyasi; hamshira parvarishi erishgan maqsadlarini baholash darajasi; hamshira yordamining bemor ahvoriga ko'rsatgan samaradorligini baholash; bemorning yangi paydo bo'lgan muammolarini baholash va faol holatda izlab topish. Hamshiralik parvarishini to'g'ri baholashda olingan natijalarni to'g'ri tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. J. Hamrayev, A. V. Alimov, T. A. Agzamho'jayev. «Xirurgiya va reanimasiya asoslarida hamshiralik ishi». Toshkent, 2000-yil «O'qituvchi» nashriyoti.
2. A. J. Hamrayev, M. A. Hamedova. «Xirurgiya». Toshkent, 2002-yil «O'qituvchi» nashriyoti.
3. M. Bekmurodova. «Jarrohlik va reanimasiya asoslarida hamshiralik ishi». Toshkent, 2005-yil.
4. M. F. Ziyayeva, M. A. Hamedova, G. M. Mirrahimova, R. T. Murodova. «Jarrohlikda hamshiralik ishi». Toshkent – 2005 Milliy ensiklopediya.